



O'ZBEKISTONNING YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

Xudoyorov Azizbek Avaz o'g'li

<https://orcid.org/009-0001-7045-4062>

Annotatsiya

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va biologik xilma-xillikning yo'qolishi kabi ekologik muommalarga duch kelmoqda. Ushbu muammolarga muqobil yechim sifatida atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytiradigan va adolatli rivojlanishga zamin yaratuvchi "yashil iqtisodiyot"ga o'tish zarurati tobora kuchayib bormoqda.

Ushbu maqolada O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish zarurati, mavjud muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va iqtisodiy va ekologik omillar tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy tamoyillari va strategik yo'nalishlarini aniqlash, mavjud muammolarni baholash hamda ularni bartaraf etishga doir ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, atrof-muhit, ekologik barqarorlik, ekologik muammolar, qayta tiklanadigan energiya, chiqindilar, tabiiy resurslar, past uglerodli rivojlanish, iqlim o'zgarishi, ekologiya.

ПЕРЕХОД УЗБЕКИСТАНА К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Аннотация

Сегодня страны по всему миру сталкиваются с экологическими проблемами, такими как изменение климата, истощение природных ресурсов



и потеря биоразнообразия. В качестве альтернативного решения этих проблем все более востребован переход к «зеленой экономике», которая снижает негативное воздействие на окружающую среду и создает основу для справедливого развития.

В данной статье анализируется необходимость перехода к зеленой экономике в Узбекистане, существующие проблемы, их причины, а также экономические и экологические факторы. Основной целью исследования является выявление основных принципов и стратегических направлений перехода к зеленой экономике в условиях Узбекистана, оценка существующих проблем и разработка научно обоснованных рекомендаций по их устранению.

Ключевые слова: Зеленая экономика, устойчивое развитие, окружающая среда, экологическая устойчивость, экологические проблемы, возобновляемые источники энергии, отходы, природные ресурсы, низкоуглеродное развитие, изменение климата, экология.

UZBEKISTAN'S TRANSITION TO A GREEN ECONOMY: PROBLEMS AND SOLUTIONS

KHUDAYAROV AZIZBEK AVAZ UGLI

Abstract

Today, countries around the world are facing environmental challenges such as climate change, depletion of natural resources, and loss of biodiversity. As an alternative solution to these problems, there is an increasing need to transition to a "green economy" that reduces negative environmental impacts and creates the basis for equitable development.

This article analyzes the need for transition to a green economy in Uzbekistan, existing problems, their causes, and economic and environmental factors. The main goal of the study is to identify the main principles and strategic directions of



transition to a green economy in the conditions of Uzbekistan, assess existing problems, and develop scientifically based recommendations for their elimination.

Keywords: green economy, sustainable development, environment, environmental sustainability, environmental problems, renewable energy, waste, natural resources, low-carbon development, climate change, ecology.

Kirish

Jahonda ekologik muammolarning kuchayib borishi, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va resurstejamkor ishlab chiqarishni joriy qilishda yangi iqtisodiy rivojlanish modellaridan foydalanish, yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida mamlakat iqtisodiyotini barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, global isish sharoitida kamuglerodli ishlab chiqarishni samarali joriy qilish, hududlarning turli inqirozlar va ulardan keyingi davrlarda barqaror taraqqiy ettirish, ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta'minlash yo'nalishlari bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

O'zbekistonning "yashil iqtisodiyot"ga o'tish zarurati shundan iboratki, mamlakatda energiya ishlab chiqarish deyarli to'liq uglevodorodlar (neft, tabiiy gaz, ko'mir)ga bog'liq holda amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda uglevodorod energetikasidan foydalanish hisobiga har yili yalpi ichki mahsulotning o'rtacha 4,5 foizi yo'qotilmoqda. Xalqaro amaliyotga nisbatan mamlakat iqtisodiyoti energiyatalab va uglerodtalab iqtisodiyot sanaladi. Respublika YIMning energiyatalablik ko'rsatkichi bo'yicha dunyodagi yetakchi o'n davlatdan biri hisoblanadi.

O'zbekiston YIMning energiyatalablik darajasi bo'yicha Germaniya, Turkiya, Italiya va Ispaniya kabi davlatlardan ikki baravar yuqori, uglerodtalablik darajasi bo'yicha esa dunyo davlatlari o'rtacha ko'rsatkichidan 1,5 baravar yuqoridir.

Shu bilan birga, mamlakatdagi uglevodorodlar zahirasi yaqin o'n yillik istiqbolda tugashi ehtimoli yuqori bo'lib, bu yangi turdagi – muqobil energiya



manbalaridan foydalanishni taqozo etmoqda. Demak, O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishda, avvalo, “yashil energetika”ni rivojlantirish zarurati yuzaga keladi. Chunki mamlakatda muqobil energetika tizimining shakllanishi boshqa tarmoqlarni ham shu yo‘nalishga jalb qiladi va ularning bu yo‘ldagi harakatini tezlashtiradi.

Mintaqalarda iqtisodiyot tarmoqlarini “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish zaruratining yana bir muhim jihati shundaki, mamlakatdagi energetika sanoati quvvatlarining qariyb 40 foizi jismonan eskirgan va ma‘nan talabga javob bermaydi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, mamlakatdagi elektr energiyasi tarmoqlarining aksariyati 30 yil va undan ortiq muddat davomida foydalanilmoqda. Magistral va taqsimlash tarmoqlarining 66 foizi, 74 foiz podstantsiyalar va 50 foiz transformator podstantsiyalari 30 yildan ortiq foydalanilgan.

Turli hisob-kitoblar va prognozlarga ko‘ra, jahon tabiiy resurslaridan oqilona va samarali foydalanish kelgusi avlod uchun 2050-yilgacha har yili 2 trillion dollar iqtisodiy foyda olish imkonini yaratadi [6].

Bu davrda dunyo aholisi soni 28 foizga, aholi jon boshiga resurslardan foydalanish darajasi esa 71 foizga ortishi bashorat qilinmoqda. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha qat’iy choralar ishlab chiqilmasa, metallar, bioyoqilg‘i, minerallar va boshqa resurslarning yillik iste‘moli 85 milliard tonnadan 186 milliard tonnagacha ko‘payishi mumkin.

Yalpi ichki mahsulotning 3,7 foiz atrofida qisqarishiga olib kelishi mumkin. Buning sababi shundaki, resurslardan tejab-tergab foydalanishga o‘tish yangi texnologiyalar va infratuzilmaga katta miqdorda sarmoya kiritishni talab qilishi mumkin, bu esa iqtisodiy ishlab chiqarish va bandlikni vaqtinchalik qisqartirishi ehtimoli mavjud.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta’kidlash mumkinki, yashil iqtisodiyotga o‘tish bugungi taraqqiyotning dolzarb va obyektiv zaruriy jarayonidir. Bu – dunyo mamlakatlari, jumladan, O‘zbekiston oldida turgan dolzarb ekologik muammolarni



hal qilish, mintaqalarda barqaror rivojlanishni ta'minlash va inson hayot sharoitlarini yaxshilashda, shuningdek, bugungi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik chaqiriqlarga javob beruvchi iqtisodiy samarali yo'ldir.

Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbusi bilan 2025-yilga "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb nom berildi. Bu qaror mamlakatimizning barqaror rivojlanishi, yuzaga kelgan ekologik muammolarni hal qilish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan muhim omillarga asoslangan.

"Nima uchun, bir yilni shunga bag'ishlaymiz, qonunlarimizni charxlab, ishlarimizni saranjom qilib olamiz. Hech kim bizga ishonmagan edi: O'zbekiston shamol, quyosh va gidroelektr bo'yicha shunday qilishiga. Yashil iqtisodiyot yili deganda tajriba o'rganamiz. Har bir qaror, qonun, farmonni yashillikka olib borsak, o'ylaymanki, yaxshi bo'ladi", ¹ dedi muhtaram yurtboshimiz o'z so'zining davomida.

Bundan tashqari yurtimizda "Yashil makon" umummilliy loyihasining hayotga joriy etilgani xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biri bo'lgan bo'sh yerlarga ko'chat ekish, bog'-rog'lar barpo etish an'analari qayta tikladi. Ona tabiatga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirdi. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish g'oyasining ilgari surilgani esa energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirishga, iqlim o'zgarishlari oqibatlarini yumshatib, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga, tabiiy ekotizimlarni asrashga, iqlim o'zgarishi sharoitida samarali, resurs tejankor va ekologik xavfsiz iqtisodiyotni ta'minlashga qulay muhit yaratib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev butun dunyo e'tiborini Orol dengizi bilan bog'liq masalalarga qaratib kelmoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mamlakatimizning barcha hududidan texnika va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 20-noyabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida so'zlagan nutqi



mutaxassislar jalb etilib, Orolbo‘yi mintaqasida ekologik muvozanatni yaxshilashga kirishildi. Orol dengizining qurib qolgan yer maydonlarida ko‘kalamzorlashtirish ishlari olib borildi, hudud xususiyatlariga mos daraxtlar ekildi va bu jarayon izchil davom etmoqda.

Mamlakatimizda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish orqali tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga salbiy ta’sirini yumshatish muhim eng muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Iqtisodiyotni ekologiyalashtirish va “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish davri muammolariga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borgan xorijiy olimlardan A.M.Rodrigues, D.Zhang, M.Mohsin, R.Sho’derholm, A.Kasztelan, L.Georgeson, N.Norouzilarni misol keltirishimiz mumkin. Shuningdek, MDH mamlakatlari olimlaridan V. Frolov, A. Shevchuk, A. Lebedev, N. Grigoryeva, Y. Danilovlarning yashil iqtisodiyotga oid muhim tadqiqotlarini keltirish mumkin. Ularning tadqiqotlarida yashil iqtisodiyotning asoslari, tamoyillari, yashil iqtisodiyot modellari, mexanizmlari, energiya samarador texnologiyalar va ularni tadbiq etish istiqbollari, yashil iqtisodiyotni barqaror iqtisodiy o‘sishga ta’siri kabi masalalar o‘rganilgan. Mahalliy olimlar va tadqiqotchilardan A. Vaxabov, Sh. Xajibakiyev, A. A. Isadjonov, Z. Nurov, N. I. Abdurahmonov, Sh. A. Sultonov, M. M. Hamdamovlar O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga oid muhim tadqiqotlar olib borganlar.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatining mavzuga oid qaror va farmonlari, “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi (UNEP) hujjatlari asos qilib olingan. Tadqiqotda induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.



Tahlil va natijalar

So'nggi bir necha o'n yillik davomida O'zbekistonning iqtisodiy o'sishi, asosan, resurslarni qazib olish va tog'-kon sanoati hisobiga ta'minlandi. Mamlakat iqtisodiyoti hozirda dunyoda issiqxona gazlari chiqindilari bo'yicha beshinchi eng intensiv iqtisodiyot hisoblanadi. Yevropa va Markaziy Osiyoda esa zaharli gazlar chiqarilishi bo'yicha yetakchi mamlakatlar qatoriga kiradi. Ushbu chiqindilarning asosiy manbasi qazib olish sohasi, yoqilg'i energiyasi va og'ir sanoat tarmoqlariga to'g'ri keladi. Ammo aynan shu sohalar bo'yicha energiya samaradorligi darajasi pastligi alohida ta'kidlanishi lozim.

Dunyo tajribasidan kelib chiqib qaralganda, asosan rivojlangan mamlakatlarda energiya samaradorligi ko'rsatkichlari ancha yuqori ekani kuzatilmoqda.

(1-jadval):

Mamlakat	Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%)	Asosiy hujjatlar dasturlar	Maqsadi
Yaponiya	25.7% (2023)	Green Growth Strategy (2050)	2050-yilgacha karbon neytrallik
Germaniya	55% (2023)	Energiewende, Klimaschutzgesetz	2045-yilgacha karbon neytrallik
Janubiy koreya	8.3% (2023)	Green New Deal (2020), 2050 Net Zero Plan	2050-yilgacha karbon neytrallik
Buyuk Britaniya	47.5% (2023)	Green Finance Strategy, Net Zero by 2050	2050-yilgacha karbon neytrallik



O'zbekiston	25–30% (2024)	Yashil iqtisodiyot strategiyasi – 2030	2030-yilgacha 40% yashil energiya ulushi
-------------	---------------	--	--

Manba: BMT ning Atrof-muhit dasturi: Yashil iqtisodiyot va Barqaror

Rivojlanish va Jahon banki statistikalari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Dunyo davlatlari singari O'zbekiston ham iqlim o'zgarishiga juda moyil hisoblanadi. O'zgaruvchan iqlim uning tabiiy kapitali, qishloq xo'jaligi, yer va suv unumdorligiga tahdid soladi va tabiiy ofat xavfini kuchaytiradi. Mamlakat iqlim zaifligi bo'yicha 191 mamlakat orasida 96-o'rinni egallaydi ². Zilzila va toshqinlarga moyillik o'rtacha 1,4 million kishiga ta'sir qiladi va har yili deyarli 3 milliard dollar zarar yetkazadi. Mintaqaviy tadqiqot hisob-kitoblariga ko'ra, Markaziy Osiyo mintaqasidagi rivojlanish muammolarining 70 foizga yaqini chuchuk suv tanqisligi bilan bog'liq ³.

Yashil iqtisodiyotga o'tishning O'zbekiston uchun ahamiyati

(2-jadval)

	Maqsad va dasturlar	Kutilayotgan natija
	Barqaror iqtisodiy o'sishga intilish	An'anaviy iqtisodiyot qisqa muddatli foydani ko'zlasa, yashil iqtisodiyot uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlaydi. Bu esa O'zbekistonning global iqtisodiy tizimga integratsiyasini mustahkamlashga yordam beradi
	Xalqaro hamkorlik va investitsiyalar	Ko'plab xalqaro moliyaviy institutlar (masalan, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki) aynan yashil loyihalarni moliyalashtirishga tayyor.

² Uzbekistan: Climate Risk Profile. World Bank Publications. World Bank. (2021).

³ Berndtsson, R. and Tussupova, K. 2020. "The Future of Water Management in Central Asia." Water 12 No. 8: 2241.



		Bu esa O‘zbekiston uchun qo‘shimcha investitsiya imkoniyatlarini yaratadi.
	Yashil ish o‘rinlarini yaratish	Yashil iqtisodiyot yangi yo‘nalishlarda – masalan, qayta tiklanuvchi energetika, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik toza transport – ish o‘rinlarini yaratadi. Bu esa ishsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Jahon resurslari instituti ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston suv tanqisligiga eng ko‘p duchor bo‘lgan 25 mamlakat qatoriga kiradi. O‘zgaruvchan iqlim esa bu muammoni yanada kuchaytirishi ehtimol qilinmoqda. Jiddiy suv tanqisligi va yerlarning degradatsiyasi qishloq xo‘jaligi mahsuldorligi hamda oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda ⁴[10]. Bugungi kunda O‘zbekiston o‘zining mavjud rivojlanish modelidan o‘zib chiqib, iqlim va ekologik jihatdan ehtiyotkor bo‘lgan jahon bozorida iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlash uchun noyob imkoniyatlarga ega. Tarkibiy islohotlarning jadallashuvi asosida mamlakat o‘z iqtisodiyoti, aholisi va umuman yer sayyorasi uchun tabiiy resurslardan moslashuvchan, inklyuziv, barqaror va samarali foydalanishga asoslangan kam uglerodli va iqlimga chidamli yashil o‘shish modelini tanlamoqda hamda yangi tarmoqlarda yangi ish o‘rinlarini yaratmoqda.

2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘shishni ta’minlash dasturi doirasida amalga oshirilishi reja qilingan maqsadlar⁵.

(3-jadval)

t/r	2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil”	Kutilayotgan natijalar
-----	--	-------------------------------

⁴ Water Scarcity and Climate Change in Central Asia: Strategies for Adaptation. WRI Publications. World Resources Institute (WRI). (2020).

⁵ 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida



	iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi	
1	Issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalari	2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish
2	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish	ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko'prog'iga yetkazish
3	Sanoat sohasida energiya samaradorligi	kamida 20 foizga oshirish
4	Yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi hajmi	qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish;
5	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish	1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug'orish texnologiyasini joriy etish
6	Yiliga 200 million ko'chat ekish va ko'chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish	shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish
7	Respublika o'rmon fondi zaxiralari	fond zaxiralari ko'rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish
8	Hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash	qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish



Mamlakatimiz oldida turgan asosiy muammolardan biri bu suv ta'minotidan samarali foydalanish hisoblanadi. Xuddi shu kabi, jamiyatimiz oldida turgan asosiy muammolardan yurtimizda "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish orqali qutulish eng samarali usul hisoblanadi. Yuqoridagi jadval ma'lumotlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2030-yilgacha issiqxona gazlarining chiqish darajasini 35 foizga kamaytirish, shaharlarda yashil maydonlarni 30 foizga kengaytirish va 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug'orish texnologiyasini joriy etish yuqorida aytib o'tilgan muammolarning samarali yechimlari sifatida qaraladi.

Jahon amaliyotida "yashil iqtisodiyot"ga o'tishdagi ustuvor yo'nalishlar.

6

(4-jadval)

t/r	Ustuvor yo'nalishlar
1	Qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish;
2	Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish;
3	Suv resurslari boshqaruvini optimallashtirish;
4	"Toza" va barqaror transport vositalarini keng joriy etish;
5	Qishloq xo'jaligida organik dehqonchilikni rivojlantirish;
6	"Yashil texnologiyalar" ishlab chiqarish va ularni tijoratlashtirish bozorlarini rivojlantirish.

Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, yuqoridagi sohalarning har birida "yashil iqtisodiyot"ga o'tish orqali katta miqdordagi yillik qo'shimcha iqtisodiy foyda kutilmoqda. Jumladan, qayta tiklanadigan energiya manbalari sektorida yillik foyda 5 milliard AQSh dollaridan ortiq bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, "yashillashtirish" siyosati yangi ish o'rinlari yaratish imkonini beradi. Xususan, 2020-yilgacha bu sohada 175 mingta, 2050-yilgacha esa 270 mingta qo'shimcha ish o'rinlari tashkil etilishi prognoz qilinmoqda.

⁶ Green Growth in Developing Economies: Approaches for Central Asia. GGGI. Global Green Growth Institute (GGGI) (2021).



Mamlakatimizda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish orqali tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga salbiy ta’sirini yumshatish muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistondagi ekologik vaziyat bilan bog‘liq mavjud muammolarni global, mintaqaviy, milliy va institutsional muammolarga guruhlash mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvar kuni PF-16-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmonida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risida hadli konvensiyasining Kioto protokoli va Parij bitimi doirasida mamlakatning global hamjamiyat oldida olgan majburiyatlarini bajarishda tarmoq va sohalarning uyg‘un “yashil transformatsiya”sini amalga oshirish, ularning raqobatbardoshligi va resurs tejamkorligini ta’minlash, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish hamda aholining yashash sifatini yaxshilash va iqtisodiy o‘sinhning yangi “yashil rivojlanish” modeliga o‘tish masalalari asosiy maqsad etib belgilandi.

O‘zbekistonda 2025-yil “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida mamlakat rivojlanishining ustuvor yondashuvlari.⁷

(5-jadval)

	2025-yil uchun ustuvor yondashuvlar
1	Tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta’minlash
2	Aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvar kuni PF-16-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni



3	“Yashil iqtisodiyot” tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o‘zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish
4	Parij bitimining talablaridan kelib chiqib, O‘zbekistonning uglerod neytralligiga erishishining uzoq muddatli strategiyasi ishlab chiqish
5	Metan emissiyasini qisqartirish majburiyati doirasida tabiiy gaz, chiqindilar va chorvachilik sohalarida metan emissiyasining bazaviy holatini aniqlash

Barchamizga ma’lumki, 2023 yil 11 sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida Farmoni tasdiqlandi.⁸ Ushbu Qonun doirasida amalga oshirilishi rejalashirilayotgan muhim rejalar orasida ikkinchi ustuvor yo‘nalish tarkibidagi 51-maqсад doirasida “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Unga ko‘ra 2030 - yilga kelib qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming mega-wattga yetkazish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining jami iste’moldagi ulushini esa 40 foizga ko‘tarish ko‘zda tutilgan. Umuman olganda, O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ni barpo etish borasidagi sa’y-harakatlari uning ekologik barqarorlik va resurslarni mas’uliyatli boshqarishni qo‘llab-quvvatlashini ko‘rsatadi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki yurtimizda so‘nggi yillarda ekologiya sohasida, “Yashil iqtisodiyot” sohasida juda katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan qarorlar, strategiyalar, davlatlararo kelishuvlar ekologiyamizni yanada yangi pog‘onaga olib chiqishga asos bo‘lmoqda. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni keng joriy etish mamlakat tabiiy resurslaridan yanada oqilona foydalanish, turli xil ekologik muammolarni bartaraf

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida Farmoni



etish, aholining eko-savodxonligini oshirgan holda iqtisodiy o‘rishni ta‘minlashga sharoit yaratadi.

O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga samarali o‘rishni ta‘minlash uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Energiya samaradorligini oshirish: Energiya iste‘molini kamaytirish va yo‘qotishlarni minimallashtirish uchun sanoat va kommunal sektorlar kesimida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zarur.
- Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish: Quyosh va shamol energiyasi loyihalarini davlat xususiy sheriklik asosida rivojlantirish maqsadga muvofiq.
- Suv resurslarini boshqarish tizimini isloh qilish: Suv tejovchi texnologiyalarni ommalashtirish va suv infratuzilmasini modernizatsiya qilish orqali resurslardan oqilona foydalanish ta‘minlanadi.
- Moliyaviy rag‘batlantirish va soliq imtiyozlari: Ekologik toza texnologiyalarni joriy etayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun moliyaviy yengilliklar belgilanishi lozim.
- Ta‘lim va ilmiy salohiyatni kuchaytirish: Yashil iqtisodiyot yo‘nalishida kadrlar tayyorlash va ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa, amaliyotga yo‘naltirilgan tadqiqotlar sonini ko‘paytirish zarur. Yuqoridagi takliflarning amalga oshirilishi O‘zbekistonni yashil iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishiga, ekologik xavfsizlikning ta‘minlanishiga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish va ekologik muammolarni tezroq bartaraf etish uchun energoresurslar, suv va yerdan tejamkorlik bilan foydalanish, ekologik toza muqobil elektr energiyani ishlab chiqarish va chiqindilarni qayta ishlashga investitsiya kiritish, davlat xususiy-sheriklik tamoyilini kuchaytirish bugungi kunda eng dolzarb vazifalar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar



1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvar kunidagi PF-16-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 20-noyabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida so‘zlagan nutqi
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining Yashil iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ 436-son qarori <https://lex.uz/ru/docs/-6303230>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 04.10.2019- yildagi PQ-4477- sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-4539502>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinig “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 28.01.2023. PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2023-yilda Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”gi <https://lex.uz/uz/docs/-6385716>
7. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 2-oktyabrdagi “ Parij bitimini (Parij, 2015-yil 12-dekabr) ratifikatsiya qilish to‘g‘risida” gi O‘RQ-491-son Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30- oktabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5863-sonli Farmoni.
9. Milliy “yashil iqtisodiyot” taksonomiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.10.2023 yildagi 561-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6644013>



- 10.«Зеленая» экономика и модернизация. Эколого-экономические основы устойчивого развития. – 2012. – № 60. – 90 с.;
- 11.Алинов М.Ш.. Основы зелёной экономики: учебное пособие / М.Ш.Алинов - Алматы: "Бастау" баспасы, 2016. - 340 с.;
12. Вахобов А. В., Хажибакиев Ш. Х. : “Яшил иқтисодиёт” дарслик 196-бет.
- 13.Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., “Yashil iqtisodiyot” asosida barqaror iqtisodiy o‘shishni ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlari, “XXI asr: fan va ta'lim masalalari” ilmiy elektron jurnali. №2, 2017 yil
14. Isadjanov A.A. “Yashil iqtisodiyot”: xususiyatlari va rivojlanish omillari. Iqtisodiyot va ta'lim / 2020 № 1
15. Hamidov O.X., Yavmutov D.Sh. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish zarurati. – Buxoro: Buxoro davlat universiteti, 2024. – 16 b.
16. O‘zbekistonda “Yashil” O‘shish va Iqlim O‘zgarishi bo‘yicha Siyosiy Muloqotlar Turkumi: Ishlar To‘plami. 2022 Jahon banki 1818 H Street NW, Washington DC 20433.
17. Green Economy Policies in Central Asia: Pathways to Sustainable Development. GEF. Global Environmental Facility (GEF). (2019).